

## SHAXS SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMOLARI VA ULARGA QARSHI KURASHNING SAMARALI USULLARI

Aliyev Samariddin Murotali o'g'li

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrasi assistenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda shaxsni shakllanishining ijtimoiy muammolari, ularni bartaraf etish usullari, shaxslarga e'tibor qaratish, qiziqish qobiliyat va boshqa psixik jarayonlar batafsil ochib berilgan

**Абстрактный:** В данной статье подробно раскрываются современные социальные проблемы формирования личности, способы их устранения, ориентация на личность, любознательность и другие психические процессы.

**Abstract:** In this article, today's social problems of personality formation, methods of their elimination, focusing on individuals, curiosity and other mental processes are revealed in detail.

**Kalit so'zlar:** Shaxs, ijtimoiy muhit, muammolar, o'smirlik faoliyat turlari, allomalar hayoti, otabobolar o'g'itlari.

Har qanday inson tug'ilib ma'lum bir jamiyatda yashay boshlaydi hoh u o'zbek jamiyati bo'lsin yoki rus jamiyati yo bo'lmasa amerika jamiyati bo'lsin inson ma'lum jamiyat a'zosi hisoblanadi. Uni qanday shaxs bo'lib yetishishiga bevosita jamiyatning o'rnini beqiyosdir.

Shaxs — alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o'ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aqlidrok, tafakkur obyekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin.

Shaxs, mohiyatiga ko'ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy-tarixiy an'ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o'zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o'rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiy ma'naviy me'yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon bo'lishiga ehtiyoj sezadi.

Ijtimoiy muhitda shaxs shakllanishining asosan uchta omili mavjud

O'yin faoliyati – bunda asosiy faoliyat turi o'yin bo'lib asosan shaxsning shakllanishiga o'yin omili yetakchi faoliyat sanaladi. Chunki bola o'zini „men“ ligini

anglagandan so'ng o'ziga tegishli narsalar bilan muloqot qila boshlaydi va rolli o'yinlarni o'ynash orqali jamiyatdagi o'rnini topa boshlaydi.

O'qish faoliyati – bunda asosiy faoliyat turi o'qish bo'lib shaxsning maktab va Oliy ta'limda faoliyat olib borishi tushuniladi aynan shu bosqichda shaxs shakllanishining muhim bosqichi bo'lib shaxslararo munosabat jarayoni shakllana boshlaydi. Masalan talaba bir shahardan ikkinchi shaharga o'qish uchun keldi deylik u o'zining tengqurlari bilan muloqot jarayoniga kirisha boshlaydi unda boshqa muhitga nisbatan adaptatsiya jarayoni boshlanadi.

Mehnat faoliyati- bunda shaxsning asosiy faoliyat turi mehnat bo'lib shaxs o'zi o'qib o'rgangan kasb hunar bilim malakalarni hayotga tadbiq etadi to'plagan tajriba va ko'nikmalarni ishda faol qo'llay boshlaydi.

Bugungi kunda jamiyat hayotida shaxsni o'z o'rnini topishi nihoyatda dolzarb jarayon bo'lib qolmoqda. Umuman olganda buni bugungi davr muammosi desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni oldini olish uchun biz bir qator omillarni inobatga olishimiz lozim.

Birinchidan shaxslarni bolalikdanoq rivojlanishiga uning qiziqishlari intilishlarini inobatga olgan holda ish olib borishimiz lozim. Masalan o'smir yoshdagi shaxslarni olaylik ularda rasm chizishga nisbatan qiziqish kuchli bo'lsa uni rivojlantirish yangi yangi g'oyalar berish kerak chunki insonda ayniqsa yoshlarda qiziqish, havas, taqlidchanlik kuchli bo'ladi, mana shu narsalar uning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, jamiyatdagi o'rniga alohida ahamiyat berish kerak shaxsga nisbatan jamiyatdagilarni muomalasiga qarab uning o'rnini qanday shaxsligini bilishimiz mumkin va uning xat6 va kamchiliklarini aniqlashimiz va uni shakllantirishimiz lozim. Chunki shaxsni ikkta omil tarbiyalaydi birinchisi genetik ya'ni ota-onasi tomonidan bolaga o'tgan xarakter xususiyatlar ikkinchisi jamiyat tomonidan ya'ni atrof muhit tomonidan o'rganilgan xarakter xususiyatlari hisoblanadi.

Uchinchidan, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan madaniyat ma'rifat omillari asosida ya'ni ular tomonidan egallangan bilimlar asosida Al Beruniy Ibn Sino Imom Al Buxoriy singari buyuk allomalarimizning hayot yo'llari asosida shakllantirishimiz kerak.

Tanganing ikki tomoni bo'lgani singari shaxs tarbiyasida ham shakllanishi mumkin bo'lgan salbiy xususiyatlar mavjud bularga ichish chekish turli yot g'oyalarga kirib qolish tengdoshlar orasida o'z urnini topa bilmaslik hayotda o'z o'rnini topa bilmaslik singari omillar kiradi.

Bularning asosiy sabablaridan biri sifatida shaxslarning ongidagi bo'shliq oiladagi notinchlik psixologik muammolarini vaqtida yecha olmaslik singari jarayonlar kiradi.

Bu kabi psixologik muammolarni oldini olish uchun avvalo sog'lom fikrlash yillar davomida shaxsda shakllangan psixologik kamchiliklarni bartaraf etish kerak. O'smir yoshdanoq bolalar bandligini ta'minlash ularni turli tugarak va kasb hunar markazlariga jalb etish kerak.

Xulosa: xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki bugungi kunda shaxs jamiyatda o'z o'rnini topishida o'zining shaxsiy fikri intilishlari qobiliyat qiziqishlari va irodaviy xususiyatlarini inobatga olgan holda harakat qilish kerak shundagina kerakli inson bo'lib yetishadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek bizga mustaqil va yangicha

fikrlaydigan yoshlar kerak shunday ekan jamiyatda yetakchi shaxs bo'lib yetishish uchun albatta zamon ruhiga monand tarzda harakat qilishimiz lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ergash G'oziyev Umumiy psixologiya -T.: universitet, 2006 48-bet
- 2.Vasila Karimova ijtimoiy psixologiya -T.: 2008 91-bet
- 3.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. 488-bet.